



THE MASTER OF SWORD AND PEN – THE LIFE AND LEGACY OF SHAYBANI KHAN

Ruxshona Sodiqova

*Student of Karshi State University
Karshi, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Muhammad Shaybani Khan, Babur Mirza, religion and politics, Diwan, historical figures, history of Turkestan, decline of the Timurid dynasty, military campaigns, science and culture.

Received: 04.08.25

Accepted: 04.08.25

Published: 04.08.25

Abstract: Studying the complex and meaningful life of Muhammad Shaybani Khan, a figure of great importance in the history of Uzbek statehood, holds significant value. This article portrays Shaybani Khan as both a brave military commander and prominent political leader, and at the same time as a creative and enlightened personality. Special attention is given to his poetic legacy, his attitude toward Sufism and literature, and the philosophical views expressed in his Divan. Moreover, the article is created through a synthesis of historical accuracy and artistic interpretation, revealing the multifaceted nature of historical figures through the image of Shaybani Khan.

QILICH VA QALAM SOHIBI-SHAYBONIYXON HAYOTI VA MEROSI

Ruxshona Sodiqova

*Qarshi Davlat Universiteti talabasi
Qarshi, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Muhammad Shayboniyxon, Bobur Mirzo, din va siyosat, Devon, tarixiy shaxslar, Turkiston tarixi, Temuriylar sulolasining inqirozi, harbiy yurishlar, ilm-fan va madaniyat.

Annotsiya: O'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutgan shaxs – Muhammad Shayboniyxonning murakkab va sarmazmun hayot yo'lini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Shayboniyxon bir tomondan jasur sarkarda, yirik siyosatchi, ikkinchi tomondan esa ijodkor, ma'rifatparvar siymo sifatida tasvirlanadi. Shayboniyxonning shoir sifatidagi ijodiy merosi, tasavvuf va adabiyotga bo'lgan munosabati, "Devon"i dagi falsafiy qarashlari ham alohida e'tiborga

olinadi. Shuningdek, maqolada asar tarixiy haqiqat va badiiy mushohoda uyg'unligida yaratilgan bo'lib, Shayboniyxon siymosi orqali tarixiy shaxslarning ko'p qirrali tabiati ochib beriladi.

ВЛАДЕЛЕЦ МЕЧА И ПЕРА — ЖИЗНЬ И НАСЛЕДИЕ ШАЙБАНИХАНА

Рухиона Содикова

Студентка Каршинского государственного университета

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Мухаммад Шайбанихан, Бабур Мирзо, религия и политика, Деван, исторические личности, история Туркестана, упадок династии Тимуридов, военные походы, наука и культура.	Аннотация:	Изучение сложной и насыщенной жизни Мухаммада Шайбанихана, личности, сыгравшей важную роль в истории узбекской государственности, имеет особое значение. В данной статье Шайбанихан изображён, с одной стороны, как храбрый полководец и выдающийся политик, а с другой — как творческая и просветительская личность. Особое внимание уделяется его поэтическому наследию, отношению к суфизму и литературе, а также философским взглядам, отражённым в его «Деване». Кроме того, статья написана в единстве исторической достоверности и художественного осмысления, что позволяет раскрыть многогранную природу исторических личностей через образ Шайбанихана.
------------------------	--	-------------------	---

Kirish

O'zbek xalqi tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk shaxslar orasida Shayboniylar sulolasining asoschisi – Muhammad Shayboniyxon alohida o'rin egallaydi. U XV–XVI asrlar chorrahasida yashab, O'rta Osiyoda siyosiy hokimiyatning yangi bosqichini boshlab bergan davlat arbobi, mohir sarkarda, va ayni paytda ma'rifatparvar shoir sifatida tarix sahnasiga chiqdi. Shayboniyxon o'z davrining murakkab siyosiy muhitida faqat harbiy muvaffaqiyatlar bilangina emas, balki ilm-fan va adabiyotga e'tibori bilan ham ajralib turgan. Uning "Devon"i, tasavvufga bo'lgan qiziqishi, falsafiy-fikriy qarashlari uni ma'naviy olami boy, ko'p qirrali shaxs sifatida namoyon qiladi. Shu bois Shayboniyxon nafaqat siyosiy tarix, balki madaniy merosimizning ham ajralmas qismidir.

Asosiy qism

Muhammad Shayboniyxon tarix sahnasida ko'chmanchi o'zbeklar davlati asoschisi sifatida tanilgan yirik tarixiy shaxsdir. U Abulxayrxonning nabirasi, Budoq Sultonning o'g'li bo'lgan. Abulxayrxon esa o'z navbatida, mo'g'ul sulolasining yirik shoxi – Chingizxonning o'g'li Jo'jiddin

tarqalgan beshinchi farzandi Shaybon (yoki Shabon) nasliga mansub bo'lgan. Abulxayrxon 1462 yilda Temuriylar sulolasi vakili Ulug'bekning qizi Robiya Sultonbegimga uylanish orqali ikki yirik siyosiy sulolaning genetik va siyosiy yaqinligini mustahkamladi.

Shayboniyxonning tarixiy shaxsiyati faqat mo'g'ul merosi bilan emas, balki asosan turkiy urf-odatlar, til va madaniyat bilan shakllangan edi. Sababi, u yashagan davrga kelib, Mo'g'ulistonni tark etib Dast-i Qipchoq va Turkistonga joylashgan ko'chmanchi elatlar, jumladan Shayboniylarning ham asosiy identifikatsiyasi turkiy til, turmush tarzi va siyosiy madaniyatga bog'liq edi. Bu holat Shayboniyxonning fe'l-atvori va siyosiy qarashlarida ham o'z ifodasini topdi.

Shuningdek, Shayboniyxon tug'ilgan muhitda ikki ismli nomlash an'anasi keng tarqalgan edi. Ya'ni, bola tug'ilganida unga avvalo turkiy ism, so'ngra islomiy aqidalarga mos holda arabcha ism qo'yilar edi. Bu holat Amir Temur nabirasi bo'lmish Mirzo Ulug'bekda ham kuzatilgan bo'lib, uning rasmiy ismi "Muhammad", ammo xalq orasida "Ulug'bek" nomi bilan tanilgan. Xuddi shunday, Shayboniyxonning ham rasmiy ismi Muhammad bo'lgan bo'lsa-da, u tarixda turkiy nisba bo'lgan "Shayboniy" laqabi bilan mashhur bo'lgan.

Tarixda bu nomlash tizimi boshqa sulolalarda ham mavjud bo'lgan. Masalan, Xorazmshohlar sulolasida ham shohlarning rasmiy nomi arabcha, xalq orasidagi nomi esa turkiy bo'lgan. Oltin O'rda xonlaridan Muhammad nomi bilan atalgan Uzbegxon, Jo'niybek va Berdibeklarning asl ismlari ham turkiy bo'lib, ular ham tarixda aynan shu turkiy ismlari bilan qoldilar. Shayboniyxon ham ushbu tarixiy-an'anaviy tizim doirasida shakllangan shaxs bo'lib, uning tarixiy obrazida turkiy madaniyat bilan islomiy g'oyalarning sintezi yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbek xalqi tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslar orasida Muhammad Shayboniyxon alohida o'ringa ega. U nafaqat yirik sarkarda va davlat arbobi, balki ijodkor shoir, ma'rifatparvar inson sifatida ham tarixda nom qoldirgan. Shayboniyxon o'z davrida Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzishga erishgan. Temuriylar inqirozidan keyingi siyosiy bo'shliqni to'ldirib, yangi siyosiy tuzum asoslarini yaratgan sarkarda edi. U o'z hayoti davomida qilich bilan yurtida tartib o'rnatishga intilgan bo'lsa, qalam orqali ma'naviy boyliklar yaratgan, o'zining "Devon"i orqali adabiyotga ham salmoqli hissa qo'gan. Shayboniyxon shaxsiyatini o'rganish bu nafaqat tarixiy haqiqatga yaqinlashish, balki o'zbek davlatchiligi va madaniy merosining ildizlarini chuqurroq anglashdir.

XV asr oxiri-O'rta Osiyoda notinchlik davri edi. Temuriylar davlati parchalanib borayotgan, ichki nizolar va taxt uchun kurashlar yurtni zaiflashtirayotgan bir pallada Movarounnahr strategik jihatdan zaiflashgan edi [1; 286]. Xalq adolatli va qudratli hukmdor istar, mamlakat esa kuchli rahbarni kutar edi. Aynan shunday sharoitda tarixiy maydonga Shayboniyxon chiqdi. Muhammad Shayboniyxon 1451-yil tug'ilgan. U o'z nasabini

Chingizxongacha yetkazadigan, shijoatli, harbiy salohiyatga ega, o'ta ziyrak va siyosiy jihatdan pishiq shaxs edi [2; 45-47]. Boshida kichik guruh lashkarga ega bo'lgan Shayboniyxon qisqa vaqt ichida butun mamlakat taqdirini o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi. Shayboniyxonning siyosiy faoliyati 1500-yilda Buxoroni egallash bilan boshlandi. Ko'p o'tmay u 1501-yilda Samarqandni bosib oldi. Bu harakatlar natijasida u Temuriylar hukmronligiga zarba berdi va yosh Bobur Mirzoni chekinishga majbur qildi. Shayboniyxon va Bobur o'rtasida raqobat tarixda muhim siyosiy voqealar qatoriga kiradi. [3]. Shayboniyxonning harbiy yurishlari faqat Movarounnahr bilan cheklanib qolmadi.

1506-yilda Hirotni ya'ni Temuriylar sulolasiga amalda yakun yasadi. Shu tariqa Shayboniyxon davlatni yagona siyosiy markazga birlashtirib, Shayboniylar sulolasiga asos soldi. Shayboniyxon o'z yurishlarida g'ayri oddiy harbiy taktikalar, turk-qozoq an'alariga tayangan chaqqon qo'shin tizimi va tez harakatlana oladigan otliq qo'shinlardan foydalanishi bilan mashhur edi. U boshqaruv tizimida ko'pgina islohotlarni amalga oshirdi. Viloyatlarga o'z yaqinlarini hokim qilib tayinladi, shu tariqa mahalliy hokimlarning sodiqligini ta'minladi. Soliq tizimi va moliya boshqaruvini tartibga soldi [4].

Islom dini va ma'rifat markazlarini qo'llab-quvvatladi. Buxoro, Samarqand, Hirotida madrasa, masjid va kutubxonalar barpo ettirdi. Ilm-fanga alohida e'tibor qaratib olim va shoirlarni saroy atrofida to'pladi. Uning siyosati harbiy kuchga tayanuvchi bo'lsada, xalqning qalbini zabt etish, ma'naviy – ma'rifiy qariyatlarga hurmat bilan qarash orqali mustahkamlanardi [5; 63-65]. Ko'pchilik uchun kutilmagan haqiqat Shayboniyxonning shoir sifatidagi faoliyatidir. U "Muhammad Shayboni" taxallusi bilan go'zal, ruboiy, qasida va boshqa janrlarda she'rlar bitgan. Uning "Devon"i bizgacha yetib kelgan bo'lib, unda: Dunyo hayotining beqarorligi; Haqiqat va adolatli; Allohga muhabbat va tavba; Vatan tuyg'usi va xalq dardiga hamdardlik kabi mavzular yoritilgan [6]. Uning she'rlari soddaligi, yurakka yaqinligi va falsafiy teranligi bilan ajralib turadi.

Shayboniyxon ijodida tasavvufiy g'oyalar, sabr va ahloqiy poklik ko'p uchraydi. 1510-yilda Shayboniyxon Eron hukmdori Shoh Ismoil Safaviy bilan bo'lgan Marv jangida halok bo'ladi [7]. Bu jangda u Safaviylar tomonidan qurshab olinib, hayotdan ko'z yumadi. Aytishlaricha Shoh Ismoil Shayboniyxonning jasadini parchalab, boshi bilan g'alaba sharafiga qizilboshidan taom tayyorlatgan – bu voqea O'rta O'siyo tarixida fojiali sahifalardan biri sifatida qayd etilgan. Shayboniyxon vafotidan so'ng ham Shayboniylar sulolasi faoliyatini davom ettirdi. Ayniqsa, uning nabiralari Abdullaxon II davrida Buxoro xonligi kuchli davlatchilik asoslariga tayandi [8].

Roviylar va tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Muhammad Shayboniyxon islom ulamolariga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'lgan va ilm-ma'rifat ahlining qadriyatlarini yuksak e'tirof etgan. U harbiy yurishlar chog'ida ham o'zi bilan kichik, ammo boy kutubxona olib yurgan. Shayboniyxon Amir Temurga o'xshab ilmiy va diniy bahslarda faol ishtirok etgan,

Damashq va Halab ulamolari bilan diniy masalalarda munozaralar olib borgan. U Hirotning mashhur mufassirlari – Qozi Ixtiyor va Muhammad Yusuf bilan Qur’oni karim oyatlari yuzasidan tafsiriy muloqotlar o’tkazgan.

Mirzo Bobur ham o’z asarlarida Shayboniyxonning diniy bilim darajasi yuqoriligi, islomiy fanlarga chuqur e’tibor qaratganligini alohida ta’kidlaydi. Aynan shu keng qamrovli islomiy bilimi va ma’naviy saviyasi tufayli zamonasining ko’zga ko’ringan ulamo va adiblari uni “Xalifatu-r-Rahmon” (“Tavfiq topgan xalifa”) va “Imomu-z-Zamon” (“Zamon imomi”) kabi yuksak unvonlar bilan sharaflaganlar. Bu esa Shayboniyxonning nafaqat sarkarda va davlat arbobi, balki chuqur bilimli ma’rifatparvar siymo sifatida tan olinganligini ko’rsatadi.

Muhammad Shayboniyxon – buyuk sarkarda, dono hukmdor va shoir. U qilich bilan siyosiy barqarorlikni o’rnatgan bo’lsa, Qalam bilan xalqi qalbiga yo’l topdi. U o’z hayoti davomida milliy o’zlik, davlat mustaqilligi va ma’naviy uyg’onish g’oyalarini ilgari surgan. Bugun Shayboniyxon merosini o’rganish – bu tarixni xotirlash emas, balki o’zbek xalqining siyosiy tafakkuri va ma’naviy ildizlarini anglashdir. Uning qilichi tartib va intizomni ifodalagan bo’lsa, Qalam – tafakkur va ma’naviyat ramzi bo’lib qolmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Shayboniyxon nafaqat yirik sarkarda va siyosatchi, balki o’z davrining ziyolisi, ma’rifatparvar shaxs sifatida ham tarixda o’ziga xos o’rin egallaydi. U Temuriylar inqirozidan so’ng Turkistonda siyosiy barqarorlikni tiklash, markazlashgan davlat tuzish va uning siyosiy chegaralarini kengaytirishda muhim rol o’ynadi. Shayboniyxon o’zining harbiy yurishlari bilan Movarounnahrda Shayboniylar sulolasining asosini qo’ydi, ilm-fan, adabiyot va din sohasida islohotlarga zamin yaratdi. Ayniqsa, uning “Devon” nomli she’riy to’plami orqali ifodalangan falsafiy qarashlari va tasavvufga munosabati, uning qalbida chuqur ma’naviy olam mujassam bo’lganini ko’rsatadi.

Shayboniyxon timsolida biz tarixiy shaxsning ikki qirrali – siyosiy-harbiy va adabiy-ma’naviy qiyofasining uyg’unlashganligini ko’ramiz. Uning merosi nafaqat o’zbek davlatchiligi taraqqiyotida, balki turkiy islomiy madaniyatning shakllanishida ham muhim tarixiy bosqich hisoblanadi. Shu bois, Shayboniyxon nafaqat qilich egasi, balki qalam ahlining ham chin vakili sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Bartold V.V. Turkistan v epokhu mongolskogo nashestviya. -Moskva: Nauka, 1963.
2. Axmedov B.A. Shayboniylar davlati tarixi (II bob). -T.:Sharq, 2001.
3. Qayitmetov A. O’zbekiston adabiyoti tarixi. I jild. -T.:Fan, 1978.
4. Devletov E. Shayboniylar davrida O’rta O’siyo siyosati va madaniy hayoti. -T.:Fan, 2015.

5. Axmedov B.A. Shayboniylar davlati tarixi. (II bob). -T.:Sharq, 2001.
6. Sultonova M. Shayboniyxonning adabiy merosi. -T., O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2018.
7. Sayidov A. Shayboniylar sulolasining Buxoro tarixidagi o'rni// Tarix va Madaniyat jurnali, 2020, No 4.
8. Aslanov M.X. Shayboniylar davlati tarixi. – Toshkent:Fan, 1990.
9. Qo'rbonov H. Shayboniyxon: ijod va meros- Samarqand: SamDU nashriyoti, 2010.